

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ 38
2025- yil “29” 04



“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor
Dj. Sultanov

2025- yil “29” 04

**RAQAMLI IQTISODIYOT VA INNOVATSIYA
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	300 000-	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta’lim sohasi:	310000-	Ijtimoiy va xulq atvoriga mansub fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60310500-	Raqamli iqtisodiyot (axborot kommunikatsion texnologiyalari)

Fan/modul kodi DEA114MBK	O'quv yili 2025-2026	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili o'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 3	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Raqamli iqtisodiyot va innovatsiya	48	72	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi ushbu kurs orqali talabalarga mamlakatimiz raqamli iqtisodiyotini erkinlashtirish va raqamli iqtisodiyot asosari hamda uning sharoitlarida elektron tijoratni tashkil qilish hamda boshqarish masala va muammolariga bag'ishlangan. Xozirgi paytda tezkorlik bilan rivojlanayotgan va bir qancha shov-shuvlarga sabab bo'layotgan raqamli iqtisodiyot hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan elektron tijorat sohasiga hamda uning infratuzilmasini atroflicha iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va boshqarish nazariyasini va amaliy qo'llanilishini chuqur o'rgatishdir. Fanning vazifalari asosan talabalarni zamonaviy raqamli texnologiyalar, ularning iqtisodiy tizimga ta'siri, innovatsion jarayonlar va raqamli transformatsiya yo'nalishlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirishdir, raqamli texnologiyalar asosidagi iqtisodiy faoliyat turlari, ularning xususiyatlari va afzalliklarini o'rganish. Raqamli mahsulotlar yaratish, elektron tijorat, raqamli marketing va startaplar bo'yicha amaliy bilimlarni berish.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish: AKT inqilobi va kombinatsion innovatsiyalar. Innovatsiya istiqbollaridagi to'ntarish, AKT inqilobi tushunchasi, kombinatsion innovatsiyalar, mahsulotlar, jarayonlar, odamlar va texnologiyalardagi innovatsiyalar. Innovatsiyalar va tadbirkorlik</p> <p>2-mavzu. Innovatsiyaning ta'rifi, tarixi va o'lchovi. Ixtirolar, innovatsiyalar va texnologik o'zgarishlarni o'lchashdagi ta'riflar va muammolar. Institutlar va innovatsiyalar, tarixiy istiqbol. Innovatsiyalarni jadallashtirishda AKT inqilobining roli</p> <p>3-mavzu. Iqtisodiy asoslar Bozor iqtisodiyoti asoslari Talab, taklif va narx tizimi. Raqobat, monopoliya va bozor hokimiyati. Bozor muvaffaqiyatsizliklari: tashqi va jamoat tovarlari</p> <p>4-mavzu. Bilim va axborot tovarlarining jamoatchilik uchun yaxshi tabiati. Cheklanmaslik, raqobatsizlik, jamoat tovarlari va ulardagi bozor muvaffaqiyatsizliklari. Bozordagi nosozliklarni bartaraf etish; davlat</p>			

homiyligi, IP, auksionlar, sovrinlar, tanlovlar. Bilimga sarmoya kiritish

5-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulkka kirish. Patentlar, mualliflik huquqlari, savdo belgilari, intellektual mulkning optimal dizayni

Intellektual mulk va monopoliyaga qarshi kurash

6-mavzu. AKT inqilobi va innovatsiyasi. Yangi texnologiyalar bo'yicha iqtisodiy ichkilashtirish va moliyaviy chayqovchilik. Yangi iqtisodiyot: sanoat tovarlaridan gadjetlargacha, moddiy tovarlardan raqamlargacha. Komunikativ innovatorlar va kombinatsion innovatsiyalar

7- mavzu. Yangi iqtisodiyotni tushunish: innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchilar va to'siqlar. Bozor kuchi, narxlarni kamsitish, birlashtirish, almashtirish xarajatlari, qulflash kompyuter vositachiligidagi tranzaktsiyalar, tarmoq tashqi ta'siri, hamkorlik, muvofiqlik

8- mavzu. Yangi iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari. Raqamli iqtisodiyotda yangi bilimlarning o'rni va amaliy ahamiyati, Raqamli iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi ob'ektlari, Raqamli iqtisodiyot va kichik biznes, Ta'lim biznesida raqamli innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish, Ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

9- mavzu. Innovatsiyalarni strategik boshqarish. Innovatsion menejer, innovatsion firma, innovatsion sanoat, bugungi kunda innovatsiyalar: xususiy-davlat hamkorligi

10- mavzu. Innovatsiya va o'sish. Innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish va quvish. Jahon iqtisodiyotida innovatsiyalar, fan va texnologiya siyosati

11- mavzu. Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli ta'lim va savodxonlikni oshirish, onlayn savdoni va E-Commerce-ni rivojlantirish, raqamli innovatsiyalar va startaplarni rivojlantirish

12-mavzu. Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari. Raqamli valyutalarning shakllanishi va rivojlanishi, kriptovalyutalar va to'lov tizimlari, Raqamli shartnomalarni amalga oshirish, Raqamli iqtisodiyotda qo'llaniladigan kriptovalyutalar.

13- mavzu. Bulutli texnologiyalar. Bulutli infratuzilmani rivojlantirish, bulutli xizmatlarni kengaytirish, bulutli texnologiyalarni kichik va o'rta bizneslarda tatbiq etish, bulutli texnologiyalarni innovatsion loyihalarda tatbiq etish

14-mavzu. Mobil texnologiyalar. Mobil internet va tarmoqlarni rivojlantirish, mobil ilovalar va servislarni rivojlantirish, mobil to'lovlar va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish, mobil texnologiyalarni ta'limda va ishlab chiqarishda qo'llash

15 mavzu. Biznesni raqamlashtirishning amaliy jixatlari. Biznes jarayonlarini raqamli tahlil qilish va transformatsiyalash, raqamli marketing

va mijozlar bilan ishlash tizimini yaratish, moliyaviy va hisob-kitob tizimlarini raqamlashtirish, kadrlar bilan ishlash va masofaviy boshqaruv tizimini joriy etish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-**mavzu.** Kirish: AKT inqilobi va kombinatsion innovatsiyalar.
- 2-**mavzu.** Innovatsiyaning ta'rifi, tarixi va o'lchovi.
- 3-**mavzu.** Iqtisodiy asoslar
- 4-**mavzu.** Bilim va axborot tovarlarining jamoatchilik uchun yaxshi tabiati.
- 5-**mavzu.** Raqamli iqtisodiyotda intellektual mulkka kirish.
- 6-**mavzu.** AKT inqilobi va innovatsiyasi
- 7- **mavzu.** Yangi iqtisodiyotni tushunish: innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchilar va to'siqlar.
- 8- **mavzu.** Yangi iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari.
- 9- **mavzu.** Innovatsiyalarni strategik boshqarish.
- 10- **mavzu.** Innovatsiya va o'sish.
- 11- **mavzu.** Raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari
- 12-**mavzu.** Raqamli iqtisodiyot texnologiyalar
- 13- **mavzu.** Bulutli texnologiyalar
- 14-**mavzu.** Mobil texnologiyalar
- 15 **mavzu.** Biznesni raqamlashtirishning amaliy jixatlari

Amaliy mashg'ulotlar bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

“Raqamli iqtisodiyot va innovatsiya” fani bo'yicha talabanning mustaqil ta'limi shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to'la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifasi sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi, ma'ruzaga oid materiallarni mustaqil fikrlari konspektlashtiriladi. Bundan tashqari, ayrim mavzularni kengroq o'rganish maqsadida qo'shimcha adabiyotlarni o'qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo'yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo'shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish

	<p>yo'llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma'lumotlar to'plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to'garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma'ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham, mustaqil ta'limsiz o'quv faoliyati samarali bo'lishi mumkin emas.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Raqamli iqtisodiyotning xorij tajribasi 2. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi 3. Iqtisodiy mohiyati va amaliy ahamiyati 4. Raqamli iqtisodiyot sohasida turli mamlakatlarning strategiyalari 5. Raqamli iqtisodiyotni iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. 6. Raqamli iqtisodiyotda yangi bilimlarning o'rni va amaliy ahamiyati 7. Raqamli iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi ob'ektlari 8. Raqamli iqtisodiyot va kichik biznes 9. Ta'lim biznesida raqamli innovasion texnologiyalardan samarali foydalanish 10. Ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. 11. Elektron tijorat bozorining qisqacha tarixi, elektron xizmatlar va raqamli mahsulotlar bozorining xususiyatlari 12. O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari 13. Biznesda kraudsorsing va kraudfandingning nazariyasi 14. kompaniyalarni kapitallashuvida kraudsorsing va kraudfanding, kraudsorsing va kraudfandingning yangi imkoniyatlaridan samarali foydalanish 15. Raqamli iqtisodiyot rivojlantirishda mobil texnologiyalar 16. Bulutli hisoblash texnologiyasi 17. Katta ma'lumotlar (BigData) analitikasi buyumlar Interneti (Internet of Things) sanoati 18. Sun'iy intellekt va neyron tarmoqlar.
3.	<p>V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>“Raqamli iqtisodiyot va innovatsiya” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanish xususiyatlari, aloqa va axborotlashtirish sohasida axborot risklarini boshqarish tizimini nazariy asoslari <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi;</i> - iqtisodiy risklar xususiyatlari va ularning klassifikatsiyasi, risklarni boshqarishni tashkillashtirish, ularni baholash usullarini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi;</i>

	<p>- riskni sifat va miqdor taxlili va uni o'tkazish uslubi, axborot makoni qonuniyatlarini taxlil qilish, axborot risklarini sug'urtalash axborot xavfsizligini ta'minlashning muqobil usullari bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></p>
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> * ma'ruzalar; * interfaol keys-stadilar; * semnarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); * guruhlarda ishlash; * individual loyihalar; * taqdimotlar qilish.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Wired for Innovation: How Information Technology is Reshaping the Economy (2009) Brynjolfsson and Saunders 2. Non technological and Non-economic Innovations (2009) Steffen Roth <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Белох Л.П. Реструктуризация предприятия. Учебное пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 511 стр. 2. Iminova N.A. Aloqa va axborotlashtirish sohasida iqtisodiy risklarni boshqarish. Diss. I.f.n. Toshkent, 2012. 3. Muhitdinov X.A. O'zbekistonda telekommunikatsiya xizmatlari bozori rivojlanishining moliyaviy masalalari («O'zbektelekom» AK misolida). Diss.i.f.n. – T., 2006. 4. Никонов В. Управление рисками. Как больше зарабатывать и меньше терять. - М.: Алпина Паблишерз, 2009. С. 284. 5. Просветов Г.И. Экономика предприятия: задачи и решения. Учебное практическое пособие. – М.: «Алфа-Пресс», 2009. – 560 стр. 6. Рейман Л.Д., Совершенствование системы государственного регулирования отрасли телекоммуникатсий. -Санк Петербург, 2000. <p>Axborot manbaalari</p> <p>www.economics.ru www.ved.ru www.uza.uz</p>

	<p>www.Lex.uz www.ziyonet.uz</p>
7.	<p>O'quv dasturi universitet Kengashining 2025-yil <i>29.04. 8/9/10/11/12</i> sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sullar: A.A.Mirzaraximova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti AKT sohasida iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi</p>
9.	<p>Taqrizchilar: B.Ma'murov - TDIU huzuridagi ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi PhD N.A.Xasanova - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti AKT sohasida iqtisodiyot kafedrası PhD dotsent</p>

100%

100%

100%

100%